

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 376 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinisho Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumaye va	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromdlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektualashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятowa Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi.....	198
Boltaboev Murodbek Aybekovich	
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi	203
X. I. Boyev	
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi.....	207
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak.....	216
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili.....	220
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования.....	227
Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи	
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность	232
Шерматовта Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўгли	
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности	238
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Меры по привлечению прямых иностранных инвестиций в национальные экономики.....	243
Ахмедова (Жабборовта) Нилуфар Икболжон кизи	



Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг	248
Розоков Мухаммадазиз Мансурович	
Factoring Operations in Banks.....	253
Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna	
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish.....	257
Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich	
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati.....	264
Oybek Elmuratov	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish.....	268
Uzakova Umida Ruzievna	
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy	274
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsdov Bunyod Abdusamadovich	
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	278
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari	284
Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi	288
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
Mahalliy budjetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi	295
S. Y. Ismoilova	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish	300
Qurbonova Firuza Solexovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi	306
AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich	
Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari	312
Olimova Nodira Xamrakulovna	
Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish.....	324
Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li	
Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvda faoliyat uzluksizligini baholash.....	331
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li	
Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий.....	335
Махкамова Надира Саидмуратовна	
Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarining tahlili	340
Otajonova Gulhayo Maqsd qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modellashtirish.....	345
Xudoyorov Laziz Niyozovich, Ergashova Nargiza Boboxonovna	
Mamlakatimizda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari.....	351
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich	
Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilingan mablag'lar orqali moliyalashtirishning zarurligi.....	357
Amonova Dilafro'z O'tkurovna	
To'lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish	362
Axmedov Miraziz Alisherovich	
Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari	367
Hamrokulov M. O.	



MAMLAKATIMZDA AKSIZ TO'LANADIGAN TOVARLARNI SOLIQQA TORTISH USULLARI

Alimardonov Muxammadi Ibragimovich

I.f.d., ISFT Instituti professori

Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich

PhD, ISFT Instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqla tortish usullari hamda uni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotimizda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqla tortish jadallashtirish yo'llari yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan. Xususan, aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi. Shuningdek, mamlakatimizda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqla tortish yo'llarini rivojlantirish istiqbollardagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: soliq turlari, soliq ma'muriyatchiligi, samarasizlik, muvofiqlik, daromadlarni optimallashtirish, tartibga solish natijalari, soliqlar va soliqla tortish, egri soliqlar, aksiz solig'i, aksizosti mahsulotlar, aksizosti tovarlarni soliqla tortish amaliyoti.

Abstract: This article describes the methods of taxation of excisable goods in our country, as well as ways to accelerate the taxation of excisable goods in our national economy due to its development. In particular, excise tax rates are determined based on the volume of excisable goods expressed in kind, the tax base for excisable goods, which is fixed in absolute amount (strictly). Also in our country, the existing problems in the prospects for the development of methods of taxation of excisable goods, as well as author's approaches and proposals for their elimination are presented.

Key words: types of taxes, tax administration, inefficiency, compliance, income optimization, regulatory results, taxes and taxation, crooked taxes, excise taxes, excisable goods, the practice of taxation of excisable goods.

Аннотация: В данной статье описываются методы налогообложения подакцизных товаров в нашей стране, а также способы ускорения налогообложения подакцизных товаров в нашей национальной экономике за счет ее развития. В частности, ставки акцизов определяются исходя из выраженного в натуральном выражении объема подакцизных товаров, налоговой базы по подакцизным товарам, которая фиксируется в абсолютной сумме (строго). Также в нашей стране представлены существующие проблемы в перспективах развития способов налогообложения подакцизных товаров, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: виды налогов, налоговое администрирование, неэффективность, соблюдение требований, оптимизация доходов, результаты регулирования, налоги и налогообложение, кривые налоги, акцизы, подакцизные товары, практика налогообложения подакцизных товаров.

KIRISH

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish "yashirin" iqtisodiyotga barham berishning yagona yo'lidir. Shuning uchun bu borada ta'sirchan choralarni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur. Bundan tashqari, o'zimizda ishlab chiqarilgan va import qilinayotgan yuqori likvidli mahsulotlar markirovkasini joriy etish bo'yicha jadal ish olib borish talab etiladi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida mamlakat taraqqiyotining tayanchi bo'lgan insofli, halol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, yashirin faoliyat yuritadiganlarni esa jazolash ko'zda tutilishi shart ^[1].

Aksiz solig'i mahsulot va xizmatlar tannarxiga kiritilganligi sababli, oxirgi foydalanuvchi uni to'laydi va sotuvchi ushbu soliqni davlatga o'tkazadi. Aksiz solig'i-bu mahsulot yoki xizmatning umumiy qiymatiga kiritilgan maxsus bilvosita soliqdir. Bu mahsulot qiymatida yashiringan mukofot: u talabni tartibga solish uchun ishlatiladi. Aksiz to'lanadigan buyumlar ro'yxatiga odatda ishlab chiqarish xarajatlari past bo'lgan yuqori daromadli tovarlar kiradi. Aynan shunday tovarlar davlat budjetini sezilarli darajada to'ldirishga yordam beradi.



Bu ko'pincha yuqori marjaga ega bo'lgan mahsulotlar (narx va narx o'rtasidagi farq). Davlat muntazam ravishda bunday tovarlar ro'yxatini o'zgartiradi, to'ldiradi va kamaytiradi. Bugungi kunga kelib, aksiz solig'ining budjet uchun ahamiyati milliy budjet tizimlarining rivojlanishining ko'p asrlik tarixi bilan isbotlangan. Har qanday davlat uchun aksiz to'lovlari budjet daromadlarini oshirishning jozibador vositasidir. Soliq siyosatining fiskal va tartibga soluvchi vositasi sifatida aksiz solig'ini qo'llash amaliyoti mukammal emas. Aksiz solig'i davlatning jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarga ta'sirining kam sonli vositalaridan biridir, aksiz solig'i sohasida soliqqa tortishni takomillashtirish iqtisodiy vaziyatni yaxshilash va budjetni to'ldirishning muhim shartlaridan biri bo'lishi mumkin.

Qadim zamonlardan to hozirgi kungacha aksiz solig'ining keng qo'llanilishining asosiy sababi ularning fiskal foydalari, shuningdek ularni olishning yuqori tezligi bilan bog'liqligi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon iqtisodiyotida aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullarini rivojlantirish yuzasidan mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan hamda tadqiq etilgan. Xususan, xorijlik iqtisodchi olim N.A.Negiporchuk, T.K.Podgornayalarning qarashlaricha aksiz solig'ining individual tovarlarni ishlab chiqarish rentabelligiga ta'siri ishlab chiqaruvchilarning alkogol, tamaki ishlab chiqarish va mineral xom ashyo qazib olish kabi biznes sohaslariga kirishga qiziqishini pasaytiradi. Ushbu ishlab chiqarishlar arzon narxlar va tayyor mahsulotlarning yuqori bozor narxlariga tufayli obyektiv ravishda yuqori rentabellikka ega. Aksiz solig'i, bir tomondan, ortiqcha foydaning bir qismini budjetga olib qo'yadi va boshqa tomondan, ushbu ishlab chiqarish sohaslarida iqtisodiyot "pasayishining" oldini oladi [2].

Ye. N. Golikning fikricha "ushbu soliqlarning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, aksiz solig'i turli mamlakatlarning fiskal siyosatida muhim rol o'ynaydi. Bu, birinchi navbatda, yuqori rentabellikka ega bo'lgan tovarlarga aksiz solig'ini belgilash orqali davlat tovarlarni sotishdan ortiqcha foydaning bir qismini budjetga olishi bilan bog'liq [3].

A. Z. Dadashev esa "amalda, aksiz solig'i mahsulot guruhlari ichida tabaqalashtirilgan aksiz stavkalarini belgilash, shuningdek, belgilangan aksiz stavkalarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Past navli tovarlarga nisbatan yuqori aksiz solig'i solish orqali davlat ishlab chiqaruvchini yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tishga undaydi" deya ta'kidlaydi [4].

N.A.Negiporchuk, T.K.Podgornayalarning qarashlaricha aksiz solig'ining individual tovarlarni ishlab chiqarish rentabelligiga ta'siri ishlab chiqaruvchilarning alkogol, tamaki ishlab chiqarish va mineral xom ashyo qazib olish kabi biznes sohaslariga kirishga qiziqishini pasaytiradi. Ushbu ishlab chiqarishlar arzon narxlar va tayyor mahsulotlarning yuqori bozor narxlariga tufayli obyektiv ravishda yuqori rentabellikka ega. Aksiz solig'i, bir tomondan, ortiqcha foydaning bir qismini budjetga olib qo'yadi va boshqa tomondan, ushbu ishlab chiqarish sohaslarida iqtisodiyot "pasayishining" oldini oladi [5].

A.V.Vahobov, A.Jo'rayevlar soliq nazoratiga to'xtalib, - "soliqqa oid qonunbuzilishlarning oldini olish va ularga barham berish amaldagi tadbirlarni va usullarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqazo qiladi. Soliqqa oid jinoyatlarning o'sishi davlatning moliyaviy resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va buningoqibatida davlat soliqsiz tushumlarni qidirishga majbur bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida davlatning ichki va tashqi qarzarlarining o'sishiga olib keladi [6] deb fikr bildirishgan.

Q.A.Yahyoyevning fikricha, "iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga yoki bevosita va bilvositaga bo'linadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq, to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqni xuquqiy to'lovchisi ham, xaqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq yukini boshqalarga ortish holati bu yerda bo'lmaydi. Busoliqlarga hamma daromaddan to'lanadigan va barcha mulk soliqlari kiradi. Egri soliqlarni xuquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilardir (xizmat ko'rsatuvchilardir). Lekin soliq og'irligini xaqiqatdan ham budjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni xaqiqiy soliq to'lovchilar bu yerda yashiringan" - deb ta'rif bergan [7].

Yuqoridagi fikrlarga aoslangan holda mamlakatimizda soliqqa tortish amaliyotini isloh qilish va aksizlarning samarali modellarini yaratishni qamrab oluvchi bir qator konseptual qoidalarda kamchiliklar bo'lib, uni ilmiy tushunishni, shuningdek, soliq solinadigan bazani shakllantirish muammosiga oydinlik kiritishni talab qiladi. Shunga asoslangan holda aksiz soliqlarini hisoblash, ularni budjetga undirish hamda nazorat qilishning soliq tartibini ishlab chiqish amaliyot ehtiyojlaridan sezilarli darajada orqada qolmoqda.

Umuman olganda, aksiz – bu tovarning narxiga kiritiladigan bilvosita soliqlarning bir turidir. Aksiz solig'i – O'zbekistonda ishlab chiqariladigan aksizosti tovarlarga, xizmatlarga va import qilinadigan tovarlarga qo'llaniladi.

Mamlakat budjetining muhim daromad manbalaridan biri aksiz solig'i sanaladi. Soliq tizimi rivojlanish bosqichini boshdan kechirayotgan barcha davlatlar singari, mamlakatimizda ham aksiz solig'i orqali daromadlarni tez va oson yig'ish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar iste'molini cheklash (asosan ijtimoiy zararli tovarlar) orqali muayyan bozor doirasida talab va taklifni tartibga soladiyu Davlatning milliy bozorini himoya qilish vazifasi aksiz solig'i orqali ta'minlanadi. Bunda yuqori soliq stavkalaridan foydalaniladi. Aksiz solig'i monopol mavqedagi tovar ishlab chiqaruvchi yoki aniq mahsulot turini progressiv soliqa tortish vazifasini o'taydi. Aksiz solig'i aholini boy badavlat qatlamlari daromadlarini qayta soliqa tortish usuli bo'lib hisoblanadi.

Aksiz solig'i maqsadli bo'lmagan va tartibga solinadigan soliqdir. Aksiz solig'i-bu ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarga solinadigan soliq to'lovlari. Shu bilan birga, davlat ushbu to'lovni tovarlar narxini hisoblashga qo'shishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, bu xaridor to'laydigan narxning bir qismidir.

Mahsulot soliqa tortiladigan ko'rsatkich – bu maxsus aksiz markasi. Uni olish uchun ma'lum qoidalar mavjud – barchasi mahsulot ishlab chiqarilgan mamlakatga va uning turiga bog'liq.

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, shuningdek soliq va bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Alkogolli mahsulotlarga aksiz solig'i 1-iyuldan 5 foizga oshiriladi. Import qilingan aroq, konyak va boshqa spirtli ichimliklarga aksiz solig'i JST talablari doirasida stavkalar o'rtasidagi farqni kamaytirish uchun 5 foizga kamaytiriladi.

1-jadval: Alkogol mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari¹

№	Alkogol mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari (1 litr uchun)		
		Import qilinganda	Ishlab chiqariladigan	
			2024-yil 1-yanvardan	2024-yil 1-iyuldan
1.	Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi	70%	14 900 so'm	
2.	Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari (aksiz to'lanadigan tovar tarkibidagi suvsiz etil spirtining 1 litri uchun)	101 500 so'm	38 000 so'm	40 000 so'm
3.	Vino:			
	tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda)	28 500 so'm	1 so'm	
	boshqa vinolar, shu jumladan vermut	40 600 so'm	2 200 so'm	2 310 so'm
4.	Pivo	50%, biroq 12 200 so'mdan kam bo'lmagan	1 550 so'm	1 628 so'm

2024-yil 1-apreldan zararli gazlari yuqori bo'lgan benzina aksiz solig'i stavkasi 12 foizga indekslanadi (1 litr Ai-80 benzini 1 foizga yoki 88 so'mga, metan 3 foizga yoki 84 so'm), shu bilan birga oktan miqdori 91 va undan yuqori bo'lgan benzina aksiz solig'i stavkalari o'zgartirilmadi.

Shuningdek, 1-apreldan ortiqcha iste'mol qilish natijasida kasalliklar, jumladan, qandli diabet kabi kasalliklarning ko'payishini hisobga olgan holda, tarkibida shakar bo'lgan gazlangan ichimliklar uchun 1 litr uchun 500 so'm miqdorida aksiz solig'ini joriy etish taklif qilinmoqda. Bunday soliq 50 dan ortiq mamlakatlarda (Fransiya, Vengriya, Buyuk Britaniya va boshqalarda) mavjud. Aksiz solig'idan tushgan mablag'lar Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi.

2024-yil 1-iyuldan boshlab bitta avtomobil shinasi og'irligidan (har bir kg) kelib chiqqan holda bazaviy hisoblash miqdorining 0,3 foizi (990 so'm) miqdorida utilizatsiya to'lovini joriy etish rejalashtirilmoqda. Yengil avto-

¹ O'zbekiston Respublikasining 28.12.2023-yildagi "Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RB-891-son Qonuni.



mobil shinalari og'irligidan kelib chiqqan holda (R13 dan R20 gacha) to'lov 6200 so'mdan 16 200 so'mgacha, yuk avtomobillari uchun (R16 dan R18 gacha) 11 300 so'mdan 58 800 so'mgacha bo'ladi. Qayta ishlashdan tushgan mablag'lar "Yashil Makon" dasturi va atrof-muhitni muhofaza qilish loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, og'irligi 10 tonnadan ortiq bo'lgan yuk avtomobillari uchun respublika va mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo'llariga yuk avtomashinalaridan yetkazilgan zararni hisobga olgan holda BHMning besh baravari miqdorida (1,65 million so'm) yo'l solig'i undiriladi. Mablag'lar avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasiga yo'naltiriladi. Alkogol va tamaki mahsulotlariga aksiz solig'i stavkalari 12 foizga oshiriladi. Masalan, 0,5 litrli shisha aroq 448 so'mga, bir quti sigaret 601 so'mga qimmatlashadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash hamda ular uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish maqsadida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda, soliq yukini pasaytirish, shuningdek soliq va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli choralar ko'rilmogda.

Xususan, O'zbekiston Iqtisodiyot va Moliya vazirligi o'zining budjetnomasida 2024–2026-yillarga mo'ljallangan soliq va bojxona siyosatining asosiy yo'nalishlariga ko'ra 2024-yil uchun daromad solig'i (15 foiz, ayrim toifalar uchun 20 foiz), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (12 foiz), ijtimoiy soliq (budjet tashkilotlari 25 foiz, boshqalar 12 foiz), aylanmadan olinadigan soliq (4 foiz), shuningdek, avtomobillarning mamlakat bo'ylab tranziti uchun yig'imlar va spirtli ichimliklarni sotish huquqi uchun yig'imlar bo'yicha stavkalar saqlanib qoldi. Bundan tashqari, QQS (12 foiz), mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i (10 foiz), qishloq xo'jaligi yerlari uchun yer solig'i (0,95 foiz) va yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'i (1,5 foiz) stavkalari o'zgarmaydi ^[6].

Shuningdek, sog'lom turmush tarzi va atrof-muhitni muhofaza qilishni targ'ib qilish doirasida 2024-yil 1-yanvardan boshlab alkogolli ichimliklarga aksiz solig'i stavkasini ikki baravar - bir litri uchun 7400 so'mdan 14900 so'mgacha oshirish belgilandi.

2-jadval: Alkogol mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari²

№	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari	
		Import qilinganda	Ishlab chiqariladigan
1.	Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papirosalar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek	325 000 so'm/1 000 dona + 10 doiz	250 700 so'm/1 000 dona + 10 foiz
2.	Sigara	6 400 so'm/1 dona	
3.	Chilim uchun tamaki	382 000 so'm/kg*	
4.	Chekiladigan, o'rama tamaki	382 000 so'm/kg	
5.	Chaynaladigan, hidlanadigan va shimiladigan tamaki	382 000 so'm/kg	
6.	Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki bo'lgan o'xshash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar	382 000 so'm/kg	
7.	Nikotinli tamakisiz snyus	154 000 so'm/kg	
8.	Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlik (kartrijlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)**	m/ml	

2023-yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliq yetishtirish uchun foydalaniladigan suv hajmiga soliq stavkasi suv hisoblagichlari bo'lmagan holda har kub metr uchun 80 so'm miqdorida belgilanadi, agar hisoblagichlar mavjud bo'lsa, 0,7 ga pasaytirish koeffitsiyenti qo'llanilishi mumkin. stavka. Sanoat korxonalari, elektr stansiyalari, kommunal xizmatlar uchun, shuningdek, avtomobillarni yuvish, salqin va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv narxi 12 foizga, boshqa korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa 30 foizga oshadi.

Umuman olganda, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jadal rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda buning teng raqobat sharoitlarini yaratish maqsadida soliq yukini pasaytirish va soliq to'g'risidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rilmogda. Shuningdek, aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilishda soliq solinadigan bazaga aksiz solig'ining summasi ham kiritiladi. Bunda, benzin, dizel

2 O'zbekiston Respublikasining 28.12.2023-yildagi "Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-891-son Qonuni.



yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'i hamda benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilish chog'ida to'lanadigan aksiz solig'i kiritilmagan holda aniqlanadi.



1-rasm: O'zbekiston Respublikasida aksizga tortiladigan ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar

Tovarlar import qilinganda soliq solinadigan baza tovarlarning bojxona qiymati asosida unga tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i va bojxona bojlarining summalarini qo'shgan holda aniqlanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi aksizosti tovarlar ishlab chiqaruvchi va yer qaridan foydalanuvchi korxonalarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan aksiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

Aksiz to'lanadigan tovarlarni ishtirokchiga u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan taqdirda yoxud yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda, yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) qaytarib sotib olinganda ishtirokchiga berishdir. Tabiiy spitr qo'shilmagan vinoni qaytarib olishi mumkin.

O'zbekiston hududida ishlab chiqarilgan (yoki) O'zbekistonning bojxona hududiga import qilinadigan aksiz tovarlarning buzilishi, yo'qotilishi, bundan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan hollar mustasno. Aybdor tomonidan tovarning qiymati sug'urta orqali to'langan yoki uning o'rnini qoplangan taqdirda, aksiz solig'i sug'urta orqali to'lash (o'rnini qoplash) ulushida to'lanadi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy global iqtisodiyot munosabatlariga o'tish davrida soliq munosabatlarini takomillashtirish o'ta muhim va murakkab muammolardan biri bo'lib, soliqqa tortish tizimining eng optimal variantini topish ustida uzluksiz izlanishlar olib borilmoqda. Shu sababli, mamlakatimiz rivojlanishining muhim ustuvor yo'nalishi sifatida soliq siyosatini yanada erkinlashtirish yo'nalishlarining belgilanishi, jumladan, xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish, xususiyl tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qulay soliq muhitini yaratish ushbu sohada erishiladigan yutuqlar garovidir.

Soliq yukini kamaytirishga qaratilgan respublikamizda yuritilayotgan soliq siyosati iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakat budjetining muhim daromad manbalaridan biri sanaladi. Soliq tizimi rivojlanish bosqichini boshdan kechirayotgan barcha davlatlar singari, mamlakatimizda ham aksiz solig'i orqali daromadlarni tez va oson yig'ish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar iste'molini cheklash (asosan ijtimoiy zararli tovarlar) orqali muayyan bozor doirasida talab va taklifni tartibga soladi.



Davlatning milliy bozorini himoya qilish vazifasi aksiz solig'i orqali ta'minlanadi. Bunda yuqori soliq stavkalaridan foydalaniladi. Aksiz solig'i monopol mavqedagi tovar ishlab chiqaruvchi yoki aniq mahsulot turini progressiv soliqqa tortish vazifasini o'taydi. Aksiz solig'i aholini boy badavlat qatlamlari daromadlarini qayta soliqqa tortish usuli bo'lib hisoblanadi.

Aksizlar ko'pgina holatlarda biron bir tovarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatga nisbatan unga bo'lgan talabning yuqoriligi va doimiyligi natijasida, uning sotilish narxi ancha yuqori bo'lganda paydo bo'ladi, masalan, aroq, tamaki, kofe, paxta yog'i va x.k. Agarda hukumat ushbu xususiyatlarini aksiz solig'i yordamida undirmasa, u holda aksiz tovarlarini ishlab chiqaruvchilar o'zlari bunga yarasha xizmat ko'rsatmagan holda yuqori daromadga ega bo'ladilar.

Aksiz solig'i birinchilardan bo'lib jorie yetiladi, chunki ushbu soliqni joriy etish va uning to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish nisbatan oson kechadi. Bunday ma'muriy afzalliklar soliq organlarining soliqni undirishda buxgalteriya kitoblariga tayanishlari o'rniga, balki ma'lum bir tovarlarning fizik hajmi ustidan nazorat qila olish imkoniyatlariga egaligidan kelib chiqadi. Tarixan, aksiz solig'i iste'molga emas, balki ishlab chiqarishga solinadigan soliq hisoblangan, ya'ni ishlab chiqarish joyining o'zida ishlab chiqaruvchilardan undirilgan. Aksiz solig'i mahsulot birligiga qat'iy belgilangan summalarda yoki tovar qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanishi soliqning ma'muriy afzalligini yanada to'ldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – B. 61.
2. Голик Е. Н. Экономическая природа акцизного налога и возможности ее реализации в практике отечественного налогообложения, 2014. – С. 12.
3. Дадашев А. 3. Налоги и налогообложение в Российской Федерации: Учебное пособие. - М. : Вузовский учебник: ИНФРА – М, 2013. – 89с.
4. Негипорчук Н. А. Подгорная Т.К. Акцизы. / М.: Издательство – консультационная компания "СтатусКво 97", 2011. – 123 с.
5. Modigliani F., Miller M. The cost of capital, corporation finance and the theory of investment// American Economic Review, Vol. 48, 1958, pp. 261–297.
6. O'zbekiston Respublikasining 28.12.2023-yildagi "Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-891-son Qonuni.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.